



**SHARQ VA G'ARB KURTUAZ AN'ANALARIDA ILOHIY ISHQNING AYOL
OBRAZI TIMSOLIDAGI TALQINI.**

Mamadiyarova Matluba

SamDChTI stajyor –tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek mumtoz adabiyoti (xususan, Alisher Navoiy dostonlari) va ingliz kurtuaz adabiyotida ayol obrazi timsolida gavdalangan ilohiy ishq konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqinini qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq etadi. Unda o'rta asr sharq tasavvuf she'riyati va Yevropa ritsarlik an'analarida ayol obrazi orqali ifodalangan muhabbatning ruhiy-transformativ mohiyati, uning inson kamolotidagi o'rni va "erishib bo'lmas ma'shuqa" motivining metafizik mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqot tasavvufdagi majoz–haqiqat dialektikasi, fano konsepsiyasi hamda kurtuaz an'anasidagi "fin'amor" modeli o'rtasidagi arxetipik o'xshashlik va farqlarni yoritadi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, har ikki adabiy maktabda ayol obrazi nafaqat estetik ideal, balki ruhiy yuksalishni ta'minlovchi vositachi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tasavvufda ayol obrazi ilohiy jamolning teofanik tajassumi sifatida talqin etilsa, kurtuaz adabiyotida u ritsarning axloqiy yetuklikka erishishiga xizmat qiluvchi yuksak ideal timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari Sharq va G'arb o'rta asr ma'naviy tafakkurining mushtarak universal arxetiplarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ilohiy ishq, ayol obrazi, tasavvuf she'riyati, Alisher Navoiy, kurtuaz adabiyoti, fin'amor, fano, arxetip, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

Abstract. *This article examines the artistic and philosophical interpretation of the concept of divine love embodied in the image of a woman in Uzbek classical literature (in particular, the epics of Alisher Navoi) and English courtly literature from a comparative perspective. It analyzes the spiritual and transformative essence of love expressed through the image of a woman in medieval Eastern mystical poetry and European chivalric traditions, its role in human perfection, and the metaphysical content of the "unattainable mistress" motif. The study highlights the archetypal similarities and differences between the dialectics of metaphor and reality in mysticism, the concept of fano, and the model of "fin'amor" in the courtly tradition. According to the results of the comparative analysis, in both literary schools the image of a woman is considered not only an aesthetic ideal, but also a mediator providing spiritual elevation. At the same time, while in Sufism the image of a woman is interpreted as a theophanic embodiment of divine beauty, in courtly literature she appears as a symbol of a high ideal that serves the knight to achieve moral maturity. The results of the research serve to identify common universal archetypes of medieval spiritual thought in the East and the West.*

Key words: *divine love, female image, mystical poetry, Alisher Navoi, courtly literature, fin'amor, fano, archetype, comparative literary studies.*

KIRISH

Ayol obrazi timsolidagi ilohiy ishq fenomeni o'rta asr adabiy tafakkurining eng barqaror va sermazmun mavzularidan biridir. Sharq tasavvuf adabiyoti hamda Yevropa kurtuaz an'analarida ushbu mavzu turlicha diniy-falsafiy asoslarda shakllangan bo'lsa-da, ular orasida insonning yuksak haqiqat sari intilishi, ma'shuqa obrazining transsendent timsolga aylanishi va muhabbatning ruhiy yetuklikka eltuvchi kuch sifatida talqin etilishi kabi mushtarak motivlar mavjud. Tasavvuf an'anasida ilohiy ishq—bu Yaratganga qaytish, majoz orqali haqiqatga yetish va fano holatiga erishish yo'li bo'lsa, kurtuaz adabiyotida esa muhabbat ritserning axloqiy, ruhan va ijtimoiy kamolotiga xizmat qiluvchi metafizik kuch sifatida talqin etiladi.

Sharq adabiyotida, xususan Alisher Navoiy ijodida ayol obrazi ilohiy jamolning teofanik ko'rinishi, ya'ni Haqning dunyodagi eng mukammal zuhuridir. Bu yondashuv Ibn Arabiy kabi mutasavviflar fikrlariga⁴⁵ tayanadi va tasavvufiy ramzlar tizimi (zulf, oy, quyosh, xol, qomat) orqali badiiy ifodasini topadi. Yevropa trubadurlari va "dolce stil nuovo" maktabi vakillarida esa yuksak va "erishib bo'lmas" sohibjamol g'oyasi ritserning ruhiy yuksalish yo'lida zarur sinovlar va fidoyilik mexanizmini vujudga keltiradi.

Sharq va G'arb o'rta asr adabiyotlari o'rtasidagi ushbu o'xshashliklar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan madaniy aloqalar, diniy-mistik qarashlar umumiyliigi yoki universal arxetiplarning mavjudliigi orqali izohlanadi. Biroq so'fiylik konsepsiyasidagi ilohiy ishq talqini bilan kurtuaz adabiyotidagi fin'amor modeli o'rtasidagi mazmuniy o'xshashliklar, ayniqsa ayol obrazining sakral maqomi, ruhiy yetuklikka chorlovchi kuch sifatidagi funksiyasi, hali ham tadqiqotlarning talay qismida chuqur yoritilmagan.

Shu bois mazkur maqola Sharq va G'arb o'rta asr adabiyotlari o'rtasidagi mazkur qarama-qarshi, ammo mushtarak ruhiy fenomenni qiyosiy tahlil etishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — o'zbek mumtoz adabiyotida va ingliz kurtuaz matnlarida ayol obrazining ilohiy ishq konsepsiyasidagi o'rni, badiiy-falsafiy mazmuni, ramziy yuklamasi va ontologik maqomini aniqlashdan iborat. Ushbu tahlil Sharq va G'arb ma'naviy merosidagi ruhiy birlikni ochib berish bilan birga, ayol obrazining madaniy-falsafiy arxetip sifatidagi universalligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbliigi bir necha omillar bilan belgilanadi:

1) Sharq va G'arb o'rta asr madaniy merosida ayol obrazining markaziy o'rni.

Ilmiy adabiyotda ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ular asosan alohida an'ana doirasida olib borilgan. Qiyosiy nuqtai nazardan, ayolning ilohiy timsol sifatidagi o'rni hali mukammal tadqiq etilmagan.

2) Tasavvuf va kurtuaz adabiyoti orasidagi o'xshashliklar hali ham ilmiy bahs mavzusi.

Ba'zi tadqiqotchilar tasavvufiy g'oyalar Andalusiya orqali Yevropaga o'tgan deb hisoblaydi; boshqalar esa buni universal arxetiplar bilan bog'laydi⁴⁶.

3) Navoiy poetikasining global qiyosiy tahlili yetarli darajada yoritilmagan.

46

Navoiy ayol obrazini teofanik maqomga ko‘taradi. Bu holat Petrarka, Dante, trubadurlar poetikasidagi “ideal ayol” konsepsiyasi bilan qiyoslash uchun juda qulay.

4) Ayolning ilohiy timsol sifatidagi talqini gender, mifologiya, estetika va ontologiya kesishmasida turadi.

Bu mavzu multidisiplinar tadqiqotni talab qiladi — aynan shuning uchun SCOPUS qamroviga mos keladi.

Ayol obrazi timsolidagi ilohiy ishq fenomeni o‘rta asr adabiy ijodiyotining markaziy mavzularidan biri sifatida turli madaniy an‘analarda namoyon bo‘ladi. Bu mavzu Islom olamidagi so‘fiylik tasavvuf she‘riyati hamda G‘arbiy Yevropa madaniyati kurtuaz adabiyotida o‘zining eng yorqin ifodasini topdi. Diniy-falsafiy asoslar turlicha bo‘lishiga qaramay, har ikki an‘anada ham muhabbatni ruhiy komillik yo‘li sifatida talqin etilishida hayratlanarli darajadagi o‘xshashliklar namoyon bo‘ladi. Ilohiy ishqni ayol obrazlari orqali ifodalash tajribasi jahon adabiyotining markaziy mavzularidan biri bo‘lib, u turli madaniy-tarixiy hamda diniy-falsafiy kontekstlarga qarab turlicha talqin etiladi. Adabiyotda ayol obrazi an‘anaviy ravishda profan (dunyoviy) va sakral (muqaddas) olamlar o‘rtasidagi ramziy vositachi sifatida namoyon bo‘ladi va u o‘zida ilohiylikning turli jihatlarini mujassamlashtiradi. Bunday obrazlar ilohiy muhabbatni nafaqat estetik va axloqiy, balki ruhiy va ekzistensial darajada ifodalashga xizmat qiladi. Ular orqali insoniyatning iloh bilan bo‘lgan ichki aloqasi, tavakkul, sevgi va fidokorlik kabi tushunchalar badiiy shaklda ifodasini topadi. O‘rta asr islom adabiyoti, xususan Alisher Navoiy (1441–1501) ijodi hamda XII–XIV asrlar ingliz kurtuaz adabiyotida ayol obrazlari orqali ilohiy ishq tasviri ayolning foniy va ilohiy olam o‘rtasidagi vositachi sifatidagi funksiyasi, hamda sohibjamol yor (mahbuba) siymosining turli madaniy va badiiy an‘analardagi shakllanishi va o‘zgarishlarini ko‘rish mumkin.

O‘rta asrlarda so‘fichilik islom dunyosining asosiy falsafiy doktrinalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Turkiy, arab va fors mumtoz she‘riyatdagi poetik obrazlar chuqur so‘fiy qarashlarni o‘z ichiga oladi, ularni yuzaki qarash bilan ilg‘ab bo‘lmaydi. Turkiy xalqlar X–XII asrlarda islomlashuv jarayonida so‘fiylik, ya‘ni tasavvuf g‘oyalari bilan tanishdilar. Garchi islom madaniyatida ayollar diniy yetakchilikda kamroq tilga olingan bo‘lsa-da, so‘fiylik yo‘liga kirgan ilk muridlar orasida ayollar ham bo‘lgan. Turkiy mifologiyada Umay va boshqa ayol ma‘budalar obrazlari so‘fiylikdagi ayollik g‘oyalarini qabul qilish uchun zamin yaratdi. Umay koinotning onalik mohiyatini ifodalagan bo‘lib, u baraka, himoya va ma‘naviy homiylik timsoli sifatida tasavvur etilgan. Turkiy shoirlar arab-fors so‘fiy an‘analarini o‘zlashtirish jarayonida bu g‘oyalarni o‘zlarining arxetipik tasavvurlari bilan uyg‘unlashtirdilar. Ya‘ni, ular ilohiy ayollik haqidagi islomiy mistik qarashlarni turkiy mifologik ildizlar bilan birlashtirib, o‘ziga xos sintez yaratdilar. Natijada, islomiy tasavvuf g‘oyalari turkiy madaniyatga xos rang va ma‘naviy ifodani oldi, bunda ayol obrazlari faqat ilhom va sevgi manbai emas, balki kosmik tartibotning ajralmas qismi sifatida tasvirlandi. Yaratganga bo‘lgan mistik, otashin muhabbat, ya‘ni ishq so‘fiylikda alohida o‘rinni egallagan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu yondashuv orqali diniy tajriba faqatgina

aqidaviy yoki marosimiy emas, balki chuqur ruhiy va hissiy holat sifatida ifodalana boshladi. Ishq tushunchasi orqali Allohga yetishish yo‘li nafaqat ma’naviy sayr, balki qalbning ilohiy go‘zallikka bo‘lgan iztirobi sifatida tasvirlanadi. Shu bois so‘fiylik adabiyotida ayol obrazi ko‘pincha ishqning jismoniy timsoli — ilohiy muhabbatga eltuvchi ko‘prik sifatida gavdalanadi. So‘fiylarning e‘tiqodiga ko‘ra, jannatdan quvilgan inson Oliy Zotdan ayrilishi oqibatida abadiy sog‘inch holatiga mahkum etilgan. Shu sababli inson hayotining eng oliy maqsadi — U Zot bilan birlashishga intilish, ya’ni Ilohni va U timsol bo‘lgan Haqiqatni idrok etishdir. Bu ilohiy haqiqatni anglash va tushunishning yagona yo‘li — muhabbat orqali amalga oshadi. Allohni bilish mantiq yoki aql bilan emas, balki fidokorona ehtiros, ilohiy mastlik holati — ya’ni ishqiy holat orqali amalga oshadi. Bu holat — yorni sevgan oshiq kechiradigan tuyg‘ularga yaqin hisoblanadi.

So‘fiylar tafakkurida muhabbat o‘zini Allohning eng muhim sifatlaridan biri bo‘lgan Go‘zallik orqali namoyon etadi. Go‘zallik butun borliqda mujassam bo‘lib, u doimo insonga Yaratganni eslatib turadi. Allohning o‘zi mutlaq Go‘zallikning timsolidir. Shu bois, har qanday joziba va nafosat, inson ko‘zi bilan ko‘rgan go‘zal manzara, har qanday ilhom — aslida ilohiy go‘zallikning aksidir. Go‘zallik va Allohga bo‘lgan muhabbat yer yuzidagi muhabbat timsollari orqali ifodalanaadi. Shu sababli, ilohiy muhabbat insoniy muhabbat shaklida bayon etiladi. Buyuk mutasavvif Ibn Arabiy (1165–1240) bu borada shunday yozadi: “Allohni moddiy shaklda ko‘rishga urinmang. Allohni ayolda ko‘rish — eng mukammal ko‘rishdir”. Ayol timsoli bu yerda shunchaki jismoniy mavjudot emas, balki ilohiy go‘zallik, mehr va rahmatning ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. So‘fiylikda ayolni sevish orqali Allohni sevish, ayol go‘zalligida Alloh jamolini ko‘rish mumkin, degan tushuncha mavjud. Bu yondashuv Sharq adabiyotida ayol obrazining ramziy va ezoterik ma’nolar bilan boyitilishiga sabab bo‘lgan.

XI asrga kelib so‘fiylik adabiyotida ayol obrazining ilohiy go‘zallik timsoli sifatida ko‘riluvchi modeli shakllandi. Bu obraz quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

— Tabiatning ikki tomonlamaligi: ma’shuqa bir vaqtning o‘zida ham yer yuzidagi ayol, ham Mutlaq Go‘zallikning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi;

— Yetishib bo‘lmaslik: u doimo yuksak va erishib bo‘lmas darajada tasvirlanadi, bu esa ilohiylikning o‘ta yuksak mohiyatini ifodalaydi;

— O‘zgartiruvchi kuch: uning muhabbati oshiqni ma’naviy yetuklik sari yo‘naltiruvchi qudratga ega;

— Koinotiy atributlar: ma’shuqaning go‘zalligi quyosh, oy, yulduzlar orqali ifodalanaadi, bu esa uni yuksak mavjudotlar bilan bog‘laydi va ilohiylik darajasiga olib chiqadi⁴⁷.

An’ananing rivojlanish jarayonida ayol go‘zalligiga nisbatan murakkab ramziy tizim shakllandi. Bu tizimda ayolning turli jismoniy jihatlari mistik-ma’naviy talqin bilan boyitilib, ular orqali ilohiy haqiqatlar ifodalanaadi:

— yuz — ilohiy mohiyatning bevosita aksi;

— sochlar (zulf) – olamdagi ilohiy zohirlarning ko‘pligi;

- ko‘zlar – ilohiy sifatlarning timsoli;
— lablar – ilohiy Kalom (so‘z)ning manbai;
— xol – ko‘plikdagi birlik, ya’ni vahdatu vujud g‘oyasining timsoli;
— qomat – *alif* harfiga qiyoslanadi, u esa Allohning birligi (tavhid)ni bildiruvchi ramz hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 11-jild: Xamsa: Saddi Iskandariy. – Toshkent: Fan, 1993. – 727 b.
2. Goliba M. Turonning alp qizlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – 112 b.
3. Imamov K. O‘zbek xalq nasri. – Toshkent: Fan, 1981. – 103 b.
4. Muhibova U. Qadimgi Hindiston eposlarining janubiy Hindiston xalqlari adabiyotiga ta’siri // Sharq va G‘arb adabiyotini tarixiy-qiyosiy o‘rganish masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 32–36.
5. Saidov M. O‘zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1969. – 178 b.
6. Yusupova D. A. Navoiy ijodida ayol siymosi // Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari: xalqaro konferensiya materiallari. – 2023. – T. 4. – B. 191–196.
7. Абдурахмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди. – Тошкент, 2004. – 234 б.
8. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек версиялари. – Тошкент: Фан, 1979. – 384 б.
9. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 152 б.